XALQ DEPUTATLARI SHO‘RCHI TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2024-yil 26-oktabr VI-80-158-8-120-K/24 Sho‘rchi tumani

Sho‘rchi tumani ma’muriy-hududiy chegarasini belgilash bo‘yicha amalga oshirilgan ishlarning yakuniy natijalarini tasdiqlash to‘g‘risida.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 23-apreldagi 299-sonli qarorining 1-ilovasi bilan tasdiqlangan “Ma’muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash tartibi to‘g‘risida”gi Nizom, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti rahbarligida 2023-yil 21-noyabr kuni kengaytirilgan tarzda o‘tkazilgan videoselektor yig‘ilishining 41-son bayoni 20-bandi ijrosi yuzasidan O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri tomonidan 2023-yil 15-dekabrdagi “Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va tuman(shahar)lar ma’muriy-hududiy chegaralarini tasdiqlash ishlarini amalga oshirish bo‘yicha” 03/4.3-253-son bilan tasdiqlangan Yo‘l xaritasi hamda O‘zbekiston Respublikasining “Ma’muriy-hududiy tuzilishi to‘g‘risida”gi qonunining 10-moddasi va “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6 va 24-moddalariga asosan xalq deputatlari tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1.O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 23-apreldagi 299-sonli qarorining 1-ilovasi bilan tasdiqlangan “Ma’muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash tartibi to‘g‘risida”gi Nizom, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti rahbarligida 2023-yil 21-noyabr kuni kengaytirilgan tarzda o‘tkazilgan videoselektor yig‘ilishining 41-sonli bayoni 20-bandi ijrosi yuzasidan O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri tomonidan 2023-yil 15-dekabrda 03/4.3-253-son bilan tasdiqlangan “Yo‘l xaritasi” ma’lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2.Respublika aerogeodeziya markazi Surxondaryo hududlararo bo‘linmasining 2024-yil 23-iyuldagi Sho‘rchi tumani hokimiga yuborilgan 01-95-sonli xat orqali ma’muriy-hududiy tuzilishi masalalariga doir hujjatlar inobatga olinsin.

3.Sho‘rchi tumani ma’muriy-hududiy chegarasini belgilash masalalarini ko‘rib chiqish bo‘yicha tuman komissiyasining 2024-yil “23”-iyuldagi 01-sonli yig‘ilish bayoni ma’qullansin.

4.Sho‘rchi tumani ma’muriy-hududiy chegarasini belgilash masalalarini ko‘rib chiqish bo‘yicha tuman komissiyasi tomonidan o‘rganib chiqilgan materiallarga asosan Sho‘rchi tumani bilan chegaradosh bo‘lgan Qumqo‘rg‘on, Denov, Oltinsoy va Uzun tumanlari o‘rtasidagi chegara chizig‘ini belgilash bo‘yicha chegara chizig‘ining

tavsifi 1-ilovaga hamda tayyorlangan kartografik chizmasi 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

5.Tuman ma’muriy-hududiy chegarasi aks ettirilgan xaritadagi chegara chizig‘i hududida joylashgan yerdan foydalanuvchilarning egaligidagi, foydalanishdagi yer uchastkalaridagi topografik elementlarni (kanal, kollektor, zovur, ariq va yo‘l va boshqa tabiiy va sun’iy obyektlar) saqlab qolinishi bo‘yicha Kadastr agentligining tuman bo‘limi boshlig‘iga nazorat olib borilishi belgilansin.

6.Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining doimiy komissiyalari hamda tuman hokimining barcha o‘rinbosarlari zimmasiga yuklatilsin.

7.Ushbu qarorning tasdig‘i xalq deputatlari viloyat Kengashidan so‘ralsin.

Sessiya raisi NORBOYEV GULMIRZA DAMINOVICH

Xalq deputatlari Sho‘rchi tumani
Kengashining
2024-yil 26-oktabrdagi
VI-80-158-8-120-K/24 -son qaroriga
1-ilova

1-ilova

Surxondaryo viloyati Sho‘rchi tumanining chegara

TAVSIFI

Oltinsoy, Denov va Sho‘rchi tumanlari chegara chiziqlari kesishgan joydagi ariqning suv oqimi bo‘ylab chap tomonida joylashgan nuqtani boshlang‘ich 1-nuqta deb qabul qilindi. (WGS-84 koordinatalar tizimida, shimoliy kenglik koordinatalari 38°10'5,799", sharqiy uzunlik koordinatalari 67°50'42,425").

A dan B gacha Denov tumani yerlari bilan 1-6 nuqtalar oralig‘idagi chegaralar tavsifi quyidagicha:

1-nuqtadan chegara chizig‘i avval ariqning suv oqimi bo‘ylab chap tomoni bilan umumiy janubiy yo‘nalishda barcha burulishlarni hisobga olgan holda 3495 metr masofani o‘tib, keyin sharqiy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda ariqning suv oqimiga qarshi o‘ng tomoni bilan 256 metr masofani o‘tib, so‘ng qishloq ichki yo‘lining sharq tomoni bilan shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 607 metr masofani o‘tib, yo‘l bo‘yida joylashgan 2-nuqtaga tutashadi (shimoliy kenglik 38°9'23,927", sharqiy uzunlik 67°52'28,958").

2-nuqtadan chegara chizig‘i qishloq ichki yo‘lidan, ariqqa o‘tadi va ariqning suv oqimi bo‘ylab chap tomoni bilan sharqiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 96 metr masofani o‘tib, keyin janubiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 152 metr masofani o‘tib, so‘ng ariqning suv oqimi bo‘ylab o‘ng tomoni bilan janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 207 metr masofani o‘tib, so‘ngra janubiy yo‘nalishda 89 metr masofani o‘tib, ariq bo‘yida joylashgan 3-nuqtaga tutashadi (shimoliy kenglik 38°9'10,326", sharqiy uzunlik 67°52'31,594").

3-nuqtadan chegara chizig‘i avval ariqning suv oqimi bo‘ylab o‘ng tomoni bilan janubiy-sharqiy yo‘nalishda 645 metr masofani o‘tib, keyin janubiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 184 metr masofani o‘tib, so‘ng ariqning suv oqimi bo‘ylab chap tomoni bilan janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 478 metr masofani o‘tib, ariq bo‘yida joylashgan 4-nuqtaga tutashadi (shimoliy kenglik 38°8'40,401", sharqiy uzunlik 67°52'39,291").

4-nuqtadan chegara chizig‘i avval umumiy janubiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda ariqning suv oqimiga qarshi o‘ng tomoni bilan barcha burulishlarni hisobga olgan holda 485 metr masofada Termiz, Qumqo‘rg‘on, Sariosiyo tumanlararo temir yo‘lini kesib o‘tib, ariqqa tutashadi va ariqning suv oqimi bo‘ylab chap tomoni bilan janubiy-sharqiy yo‘nalishda 99 metr masofani o‘tib, keyin tog‘ri

chiziq orqali janubiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 86 metr masofani o‘tib, so‘ng dala tuproq yo‘lining shimol tomoni bilan janubiy-sharqiy yo‘nalishda 461 metr masofada M-41 avtomobil yo‘lini kesib o‘tib, ariqqa tutashadi va ariqning suv oqimi bo‘ylab o‘ng tomoni bilan janubiy-sharqiy yo‘nalishda 966 metr masofani o‘tib, ariq bo‘yida joylashgan 5-nuqtaga tutashadi (shimoliy kenglik 38°7'50,387", sharqiy uzunlik 67°53'32,275").

5-nuqtadan chegara chizig‘i dala tuproq yo‘lining shimol tomoni bilan avval janubiy-sharqiy yo‘nalishda 728 metr masofada ariqqa tutashadi va ariqning suv oqimi bo‘ylab chap tomoni bilan janubiy-sharqiy yo‘nalishda 1161 metr masofani o‘tib, keyin janubiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 255 metr masofani o‘tib, so‘ng quruq chiziq orqali janubiy-sharqiy yo‘nalishda 130 metr masofani o‘tib, so‘ngra Surxondaryo daryosini kesib o‘tib tog‘ri chiziq orqali sharqiy yo‘nalishda 390 metr masofani o‘tib, daryo qirg‘og‘ida joylashgan 6-nuqtaga tutashadi (shimoliy kenglik 38°6'57,618", sharqiy uzunlik 67°54'44,976").

B dan D gacha Uzun tumani yerlari bilan 6-16 nuqtalar oralig‘idagi chegaralar tavsifi quyidagicha:

6-nuqtadan chegara chizig‘i Surxondaryosini suv oqimi bo‘ylab chap qirg‘og‘i bilan avval janubiy yo‘nalishda 281 metr masofani o‘tib, keyin umumiy janubiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 1737 metr masofani o‘tib, so‘ng g‘arbiy yo‘nalishda 403 metr masofani o‘tib, daryo qirg‘og‘ida joyalashgan 7-nuqtaga tutashadi (shimoliy kenglik 38°6'6,896", sharqiy uzunlik 67°53'51,394").

7-nuqtadan chegara chizig‘i avval Surxondaryosi qirg‘og‘idan zovurga o‘tadi va janubiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda zovurning suv oqimiga qarshi o‘ng tomoni bilan 341 metr masofani o‘tib, keyin qishloq ichki yo‘lining shimol tomoni bilan sharqiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 489 metr masofani o‘tib, so‘ng janubiy yo‘nalishda 555 metr masofada 4R-101 avtomobil yo‘lini kesib o‘tib qishloq ichki yo‘liga tutashadi va yo‘lning sharq tomoni bilan sharqiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 103 metr masofani o‘tib, yo‘l bo‘yida joyalashgan 8-nuqtaga tutashadi (shimoliy kenglik 38°5'36,812", sharqiy uzunlik 67°54'24,447").

8-nuqtadan chegara chizig‘i soyning suv oqimiga qarshi chap qirg‘og‘i bilan umumiy sharqiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 9173 metr masofani o‘tib, yo‘l bo‘yida joylashgan 9-nuqtaga tutashadi (shimoliy kenglik 38°3'51,778", sharqiy uzunlik 67°58'26,945").

9-nuqtadan chegara chizig‘i avval dala tuproq yo‘lining sharq tomoni bilan umumiy janubiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 1678 metr masofani o‘tib, keyin sharqiy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda soyning suv oqimiga qarshi chap qirg‘og‘i bilan 73 metr masofani o‘tib, so‘ng sharqiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda soyning barcha burilishlarini hisobga olgan holda 3438 metr masofani o‘tib, so‘ngra umumiy janubiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 1018 metr masofani o‘tib, soy bo‘yida joylashgan 10-nuqtaga tutashadi (shimoliy kenglik 38°2'16,272", sharqiy uzunlik 68°0'17,943").

10-nuqtadan chegara chizig‘i avval dala tuproq yo‘lning shimol tomoni bilan g‘arbiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 1781 metr masofani o‘tib, keyin sharqiy yo‘nalishda soyning suv oqimi bo‘ylab chap qirg‘og‘i bilan 350 metr masofani o‘tib, so‘ng umumiy janubiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda soyning barcha burilishlarni hisobga olgan holda 5146 metr masofani o‘tib, so‘ngra sharqiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 4632 metr masofani o‘tib, soy bo‘yidagi 11-nuqtaga tutashadi (shimoliy kenglik 38°0'14,290", sharqiy uzunlik 68°1'2,040").

11-nuqtadan chegara chizig‘i avval umumiy janubiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda soyning suv oqimiga qarshi chap qirg‘og‘i bilan barcha burilishlarni hisobga olgan holda 4149 metr masofani o‘tib, keyin umumiy janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 554 metr masofani o‘tib, soy bo‘yidagi 12-nuqtaga tutashadi (shimoliy kenglik 37°59'22,121", sharqiy uzunlik 68°1'40,367").

12-nuqtadan chegara chizig‘i avval janubiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda soyning suv oqimiga qarshi chap qirg‘og‘i bilan 64 metr masofani o‘tib, keyin janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 185 metr masofani o‘tib to‘g‘ri chiziqga tutashadi va to‘g‘ri chiziq orqali janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 1111 metr masofani o‘tib, soyning g‘arbiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda suv oqimiga qarshi chap qirg‘og‘i bilan 414 metr, so‘ng janubiy-yo‘nalishda 916 metr masofani o‘tib, soy bo‘yidagi 13-nuqtaga tutashadi (shimoliy kenglik 37°58'21,245", sharqiy uzunlik 68°0'46,994").

13-nuqtadan chegara to‘g‘ri chiziq orqali avval janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 3498 metr, keyin janubiy yo‘nalishda 8316 metr masofani o‘tib, so‘ng g‘arbiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 929 metr masofani o‘tib, so‘ngra janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 1142 metr masofani o‘tib, keyin janubiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 2097 metr masofani o‘tib 14-nuqtaga tutashadi (shimoliy kenglik 37°50'40,457", sharqiy uzunlik 67°57'23,225").

14-nuqtadan chegara avval to‘g‘ri chiziq orqali janubiy-sharqiy yo‘nalishda 671 metr masofani o‘tib, keyin soyning suv oqimiga qarshi o‘ng qirg‘og‘i bilan umumiy janubiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 296 metr masofani o‘tib, so‘ng shimoliy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 53 metr masofani o‘tib, so‘ngra umumiy sharqiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda barcha burilishlarini hisobga olgangan holda 837 metr masofani o‘tib, so‘ngra janubiy-sharqiy yo‘nalishda 3199 metr masofani o‘tib, keyin umumiy janubiy yo‘nalishda 1730 metr masofani o‘tib 15-nuqtaga tutashadi (shimoliy kenglik 37°49'9,991", sharqiy uzunlik 67°58'51,137").

15-nuqtadan chegara to‘g‘ri chiziq orqali avval janubiy yo‘nalishda 4571 metr masofani o‘tib, keyin janubiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 1859 metr masofani o‘tib, soy bo‘yida joylashgan 16-nuqtaga tutashadi (shimoliy kenglik 37°45'44,433", sharqiy uzunlik 67°58'15,022").

D dan E gacha Qumqo‘rg‘on tumani yerlari bilan 16-37 nuqtalar oralig‘idagi chegaralar tavsifi quyidagicha:

16-nuqtadan chegara to‘g‘ri chiziq orqali avval shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 2455 metr masofani o‘tib, keyin g‘arbiy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 3666 metr masofani o‘tib 17-nuqtaga tutashadi (shimoliy kenglik 37°47'3,755", sharqiy uzunlik 67°54'29,550").

17-nuqtadan chegara to‘g‘ri chiziq orqali avval shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 4058 metr masofani o‘tib, keyin g‘arbiy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 1813 metr masofani o‘tib 18-nuqtaga tutashadi (shimoliy kenglik 37°49'20,253", sharqiy uzunlik 67°51'47,507").

18-nuqtadan chegara chizig‘i dala tuproq yo‘lining janub tomoni bilan avval umumiy g‘arbiy yo‘nalishda barcha burilishlarini hisoga olgan holda 2146 metr masofani o‘tib, keyin g‘arbiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 2874 metr masofani o‘tib, yo‘l bo‘yidagi 19-nuqtaga tutashadi (shimoliy kenglik 37°48'53,940", sharqiy uzunlik 67°48'47,791").

19-nuqtadan chegara chizig‘i avval yo‘lning shimol tomoni bilan

g‘arbiy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 88 metr masofani o‘tib, keyin to‘g‘ri chiziq orqali shimoliy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 614 metr masofani o‘tib dala yo‘liga tutashadi va yo‘lning sharq tomoni bilan shimoliy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 704 metr masofani o‘tib dala tuproq yo‘liga tutashadi va yo‘lning g‘arb tomoni bilan avval shimoliy-sharqiy yo‘nalishda avtomobil yo‘lini kesib o‘tgan holda 2674 metr masofani o‘tib, so‘ng to‘g‘ri chiziq orqali g‘arbiy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 1560 metr masofani o‘tib, soyning suv oqimiga qarshi o‘ng tomoni bilan shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 566 metr masofani o‘tib, to‘g‘ri chiziqga o‘tadi, so‘ngra 4R-101 avtomobil yo‘lining sharq tomoni bilan shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 185 metr masofani o‘tib, yo‘l bo‘yida joylashgan 20-nuqtaga tutashadi (shimoliy kenglik 37°51'8,700", sharqiy uzunlik 67°45'42,158").

20-nuqtadan chegara chizig‘i avval 4R-101 avtomobil yo‘lidan soyga o‘tadi va soyning umumiy shimoliy yo‘nalishda suv oqimiga qarshi o‘ng qirg‘og‘i bilan barcha burilishlarini hisobga olgan holda 4958 metr masofani o‘tib, keyin g‘arbiy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda soyning suv oqimiga qarshi chap qirg‘og‘i bilan 921 metr masofani o‘tib, so‘ng dala tuproq yo‘lining g‘arb tomoni bilan g‘arbiy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 425 metr masofani o‘tib, so‘ngra shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 1136 metr masofani o‘tib, qishloq ichki yo‘li bo‘yida joylashgan 21-nuqtaga tutashadi (shimoliy kenglik 37°54'26,460", sharqiy uzunlik 67°43'51,754").

21-nuqtadan chegara chizig‘i avval qishloq ichki yo‘lidan ariqqa o‘tadi va ariqning umumiy sharqiy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda suv oqimiga qarshi o‘ng tomoni bilan barcha burilishlarini hisobga olgan holda 1277 metr masofada to‘g‘ri chiziqga o‘tadi va g‘arbiy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 51 metr masofani o‘tib, ariqqa tutashadi va ariqning shimoliy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda suv oqimiga qarshi o‘ng tomoni bilan 1811 metr masofani o‘tib, keyin sharqiy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 310 metr masofani o‘tib, so‘ng shimoly-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 232 metr masofani o‘tib, jarlik bo‘yida joylashgan 22-nuqtaga tutashadi (shimoliy kenglik 37°55'20,552", sharqiy uzunlik 67°45'36,914").

22-nuqtadan chegara chizigʻi jarlik boʻylab avval sharqiy-janmubiy-sharqiy yoʻnalishda 1213 metr masofani oʻtib, keyin sharqiy-shimoliy-sharqiy yoʻnalishda 340 metr masofani oʻtib, soʻng janubiy-janubiy-sharqiy yoʻnalishda 144 metr masofani oʻtib, jarlik boʻyida joylashgan 23-nuqtaga tutashadi (shimoliy kenglik 37°55'14,650", sharqiy uzunlik 67°46'35,379").

23-nuqtadan chegara chizigʻi jarlik boʻylab avval sharqiy-shimoliy-sharqiy yoʻnalishda 159 metr masofani oʻtib, keyin shimoliy-shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda 485 metr masofani oʻtib, soʻng Janubiy-Surxon suv omborining oʻng qirgʻogʻi bilan sharqiy-shimoliy-sharqiy yoʻnalishda 338 metr masofani oʻtib, Janubiy-Surxon suv omborining oʻng qirgʻogʻida joylashgan 24-nuqtaga tutashadi (shimoliy kenglik 37°55'35,371", sharqiy uzunlik 67°46'42,941").

24-nuqtadan chegara chizigʻi avval Janubiy-Surxon suv omborining oʻng qirgʻogʻi bilan toʻgʻri chiziq orqali kesib oʻtib shimoliy-shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda 727 metr masofani oʻtib, keyin yoʻnalishni oʻzgartirmagan holda 641 metr masofani oʻtib, zovur boʻyida joylashgan 25-nuqtaga tutashadi (shimoliy kenglik 37°56'16,868", sharqiy uzunlik 67°46'24,866").

25-nuqtadan chegara zovurning suv oqimi boʻylab chap tomoni bilan avval janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda 101 metr masofani oʻtib, keyin gʻarbiy yoʻnalishda 515 metr masofani oʻtib, soʻng gʻarbiy-shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda 487 metr masofani oʻtib, soʻngra gʻarbiy-janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda 1439 metr masofani oʻtib, keyin toʻgʻri chiziq orqali shimoliy-shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda zovurni kesib oʻtgan holda 121 metr masofani oʻtib, zovur boʻyida joylashgan 26-nuqtaga tutashadi (shimoliy kenglik 37°56'8,464", sharqiy uzunlik 67°44'49,808").

26-nuqtadan chegara chizigʻi avval zovurning suv oqimi boʻylab oʻng tomoni bilan gʻarbiy-janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda 1221 metr masofani oʻtib, keyin umumiy gʻarbiy-shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda 1449 metr masofani oʻtib, soʻng gʻarbiy-janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda 859 metr masofani oʻtib, zovur boʻyida joylashgan 27-nuqtaga tutashadi (shimoliy kenglik 37°56'5,892", sharqiy uzunlik 67°42'52,006").

27-nuqtadan chegara chizigʻi zovurning suv oqimi boʻylab oʻng tomoni bilan gʻarbiy-janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda 148 metr masofani oʻtib, keyin shimoliy-shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda Qorasuv soyining suv oqimiga qarshi oʻng qirgʻogʻi bilan 1301 metr masofada Termiz-Dushanbe temir yoʻli va M-41 avtomobil yoʻlini kesib oʻtgan holda, keyin shimoliy-sharqiy yoʻnalishda 721 metr masofani oʻtib, soʻng sharqiy-shimoliy-sharqiy yoʻnalishda 340 metr masofani oʻtib, soy boʻyida joylashgan 28-nuqtaga tutashadi (shimoliy kenglik 37°56'56,307", sharqiy uzunlik 67°42'58,494").

28-nuqtadan chegara chizigʻi Qorasuv soyining suv oqimiga qarshi oʻng qirgʻogʻi boʻylab avval shimoliy-shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda 375 metr masofani oʻtib, keyin shimoliy-sharqiy yoʻnalishda 108 metr masofani oʻtib, soʻng shimoliy yoʻnalishda 62 metr masofani oʻtib, soy boʻyida joylashgan 29-nuqtaga tutashadi (shimoliy kenglik 37°57'9,863", sharqiy uzunlik 67°43'8,889").

29-nuqtadan chegara chizigʻi Qorasuv soyining suv oqimiga qarshi oʻng qirgʻogʻi bilan avval sharqiy-janubiy-sharqiy yoʻnalishda 384 metr masofani oʻtib, keyin umumiy shimoliy-shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda barcha burilishlarini hisobga olgan holda 2679 metr masofani oʻtib, soy boʻyida joylashgan 30-nuqtaga tutashadi (shimoliy kenglik 37°58'20,953", sharqiy uzunlik 67°43'42,658").

30-nuqtadan chegara chizigʻi avval Qorasuv soyini kesib oʻtib, Qumqoʻrgʻon kanaliga tutashadi va kanalning suv oqimi boʻylab oʻng tomoni bilan gʻarbiy-shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda 365 metr masofani oʻtib, keyin gʻarbiy yoʻnalishda 380 metr masofani oʻtib, kanal boʻyida joylashgan 31-nuqtaga tutashadi (shimoliy kenglik 37°58'23,236", sharqiy uzunlik 67°43'14,498").

31-nuqtadan chegara chizigʻi Qumqoʻrgʻon kanalining suv oqimi boʻylab oʻng tomoni bilan avval janubiy-janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda 1562 metr masofani oʻtib, keyin janubiy yoʻnalishda 271 metr masofani oʻtib, soʻngra gʻarbiy-janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda 232 metr masofani oʻtib, ariq boʻyida joylashgan 32-nuqtaga tutashadi (shimoliy kenglik 37°57'30,312", sharqiy uzunlik 67°42'27,388").

32-nuqtadan chegara chizigʻi ariqning suv oqimi boʻylab chap tomoni bilan gʻarbiy-shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda 1182 metr masofani oʻtib, yoʻl boʻyida joylashgan 33-nuqtaga tutashadi (shimoliy kenglik 37°57'48,462", sharqiy uzunlik 67°41'45,447").

33-nuqtadan chegara chizigʻi avval qishloq ichki yoʻlining sharq tomoni bilan shimoliy yoʻnalishda 288 metr masofani oʻtib, keyin sharqiy-shimoliy-sharqiy yoʻnalishda 222 metr masofani oʻtib, soʻng ariqning suv oqimi boʻylab oʻng tomoni bilan shimoliy yoʻnalishda 364 metr masofani oʻtib, soʻngra gʻarbiy-shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda 301 metr masofani oʻtib, keyin shimoliy-shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda 124 metr masofani oʻtib, ariq boʻyida joylashgan 34-nuqtaga tutashadi (shimoliy kenglik 37°58'19,639", sharqiy uzunlik 67°41'44,227").

34-nuqtadan chegara chizigʻi avval ariqdan tomorqa devoriga oʻtadi va devor boʻylab shimoliy-shimoliy-sharqiy yoʻnalishda 173 metr masofani oʻtib, keyin qishloq ichki yoʻlining shimol tomoni bilan shimoliy-shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda 472 metr masofani oʻtib, soʻng ariqning suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan shimoliy yoʻnalishda 107 metr masofani oʻtib, soʻngra janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda 164 metr masofada ariqqa tutashadi va shimoliy-sharqiy yoʻnalishda ariqning suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan 118 metr soʻngra zovurning suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan umumiy shimoliy yoʻnalishda barcha burulishlarni hisobga olgan holda 404 metr masofani oʻtib, zovur boʻyidagi

35-nuqtaga tutashadi (shimoliy kenglik 37°58'52,675", sharqiy uzunlik 67°41'26,742").

35-nuqtadan chegara chizigʻi ariqning suv oqimi boʻylab oʻng tomoni bilan avval shimoliy-shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda 1826 metr masofani oʻtib, keyin sharqiy-shimoliy-sharqiy yoʻnalishda barcha burilishlarini hisobga olgan holda 266 metr masofani oʻtib, zovur boʻyida joylashgan 36-nuqtaga tutashadi (shimoliy kenglik 37°59'44,841", sharqiy uzunlik 67°41'6,953").

36-nuqtadan chegara chizigʻi avval shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda zovurning suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan 668 metr masofani oʻtib, keyin sharqiy-shimoliy-sharqiy yoʻnalishda 141 metr masofani oʻtib, toʻgʻri chiziqgaoʻtadi soʻng toʻgʻri chiziq orqali shimoliy-shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda 251 metr masofani oʻtib zovurga tutashadi soʻngra zovurning suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan shimoliy yoʻnalishda 1834 metr masofani oʻtib, ariq boʻyidagi 37-nuqtaga tutashadi (shimoliy kenglik 38°1'6,226", sharqiy uzunlik 67°40'39,435").

A dan B gacha Oltinsoy tumani yerlari bilan 37-1 nuqtalar oraligʻidagi chegaralar tavsifi quyidagicha:

37-nuqtadan chegara chizigʻi avval dala tuproq yoʻlining janub tomoni bilan sharqiy-shimoliy-sharqiy yoʻnalishda 320 metr masofani oʻtib, keyin ariqning suv oqimi boʻylab oʻng tomoni bilan shimoliy-sharqiy yoʻnalishda 522 metr masofani oʻtib, soʻng quruq chiziq orqali umumiy shimoliy-sharqiy yoʻnalishda barcha burulishlarni hisobga olgan holda 208 metr masofani oʻtib, soʻngra ariqning suv oqimi boʻylab chap tomoni bilan sharqiy-shimoliy-sharqiy yoʻnalishda 252 metr masofani oʻtib, ariq boʻyida joylashgan 38-nuqtaga tutashadi (shimoliy kenglik 38°1'30,231", sharqiy uzunlik 67°41'18,775").

38-nuqtadan chegara chizigʻi avval ariqning suv oqimi boʻylab oʻng tomoni bilan shimoliy-sharqiy yoʻnalishda 317 metr masofani oʻtib, keyin dala tuproq yoʻlining janub tomoni bilan umumiy sharqiy-janubiy-sharqiy yoʻnalishda barcha burulishlarni hisobga olgan holda 181 metr masofani oʻtib, soʻng yoʻlning sharqiy-shimoliy-sharqiy yoʻnalishda 294 metr masofani oʻtib, keyin quruq chiziq orqali sharqiy yoʻnalishda 310 metr masofada ariqni kesib oʻtib, ariq boʻyida joylashgan 39-nuqtaga tutashadi (shimoliy kenglik 38°1'38,216", sharqiy uzunlik 67°41'56,572").

39-nuqtadan chegara chizigʻi avval ariqdan oʻtib, quruq chiziq orqali sharqiy-shimoliy-sharqiy yoʻnalishda 149 metr masofani oʻtib, keyin dala tuproq yoʻlining shimol tomoni bilan sharqiy yoʻnalishda 545 metr masofani oʻtib, soʻng yoʻlning gʻarb tomoni bilan shimoliy-sharqiy yoʻnalishda 57 metr masofani oʻtib, soʻngra ariqning suv oqimi boʻylab oʻng tomoni bilan shimoliy-shimoliy-sharqiy yoʻnalishda 133 metr masofani oʻtib, keyin shimoliy-sharqiy yoʻnalishda 84 metr masofani oʻtib, soʻng ariqning suv oqimiga qarshi oʻng tomoni bilan sharqiy-janubiy-sharqiy yoʻnalishda 122 metr masofani oʻtib, ariq boʻyida joylashgan 40-nuqtaga tutashadi (shimoliy kenglik 38°1'45,079", sharqiy uzunlik 67°42'36,644").

40-nuqtadan chegara chizigʻi avval ariqning suv oqimi boʻylab oʻng tomoni bilan sharqiy-shimoliy-sharqiy yoʻnalishda 1541 metr masofani oʻtib, keyin quruq chiziq orqali sharqiy yoʻnalishda 184 metr masofani oʻtib, soʻng janubiy-sharqiy yoʻnalishda 75 metr masofani oʻtib, soʻngra dala tuproq yoʻlining shimol tomoni bilan sharqiy-shimoliy-sharqiy yoʻnalishda 123 metr masofani oʻtib, keyin janubiy-janubiy-sharqiy yoʻnalishda 295 metr masofani oʻtib, soʻng sharqiy-janubiy-sharqiy yoʻnalishda 257 metr masofani oʻtib, soʻngra qishloq ichki yoʻlining shimol tomoni bilan sharqiy-shimoliy-sharqiy yoʻnalishda 213 metr masofani oʻtib, yoʻl boʻyida

joylashgan 41-nuqtaga tutashadi (shimoliy kenglik 38°1'56,378", sharqiy uzunlik 67°44'7,699").

41-nuqtadan chegara chizigʻi avval qishloq ichki yoʻlidan avtomobil yoʻlini kesib oʻtib, quruq chiziq orqali sharqiy-janubiy-sharqiy yoʻnalishda 110 metr masofani oʻtib, keyin umumiy janubiy yoʻnalishda ariqning suv oqimiga qarshi oʻng tomoni bilan barcha burulishlarni hisobga olgan holda 1813 metr masofani oʻtib, soʻng qishloq ichki yoʻlining shimol tomoni bilan sharqiy-janubiy-sharqiy yoʻnalishda 105 metr masofani oʻtib, soʻngra umumiy shimoliy yoʻnalishda ariqning suv oqimiga qarshi oʻng tomoni bilan barcha burulishlarni hisobga olgan holda 459 metr masofani oʻtib, yoʻl boʻyida joylashgan 42-nuqtaga tutashadi (shimoliy kenglik 38°1'34,247", sharqiy uzunlik 67°44'58,119").

42-nuqtadan chegara chizigʻi qishloq ichki yoʻlining shimol tomoni bilan avval sharqiy yoʻnalishda 207 metr masofani oʻtib, keyin shimoliy-shimoliy-sharqiy yoʻnalishda 283 metr masofada avtomobil yoʻlini kesib oʻtadi va quruq chiziq orqali zovurni kesib oʻtib sharqiy yoʻnalishda 39 metr masofani oʻtib, soʻng shimoliy-shimoliy-sharqiy yoʻnalishda zovurning suv oqimiga qarshi oʻng tomoni bilan 240 metr masofani oʻtib, soʻngra shimoliy-shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda 472 metr masofani oʻtib, keyin shimoliy-sharqiy yoʻnalishda ariqning suv oqimiga qarshi oʻng tomoni bilan 290 metr masofani oʻtib 43-nuqtaga tutashadi (shimoliy kenglik 38°2'9,378", sharqiy uzunlik 67°45'15,995").

43-nuqtadan chegara quruq chiziq orqali avval shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda 132 metr masofani oʻtib, keyin gʻarbiy-shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda 586 metr masofani oʻtib, soʻng shimoliy-sharqiy yoʻnalishda ariqning suv oqimiga qarshi oʻng tomoni bilan 176 metr masofani oʻtib, soʻngra shimoliy-shimoliy-sharqiy yoʻnalishda 96 metr masofani oʻtib, keyin shimoliy-shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda 91 metr masofani oʻtib, soʻng quruq chiziq orqali gʻarbiy yoʻnalishda 165 metr masofani oʻtib, soʻngra dala tuproq yoʻlining sharq tomoni bilan shimoliy-shimoliy-sharqiy yoʻnalishda 53 metr masofani oʻtib, keyin yoʻlning shimol tomoni bilan gʻarbiy-shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda 67 metr masofani oʻtib, soʻng gʻarbiy-janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda 190 metr masofani oʻtib, soʻngra shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda 103 metr masofani oʻtib, ariq boʻyidagi 44-nuqtaga tutashadi (shimoliy kenglik 38°2'30,065", sharqiy uzunlik 67°44'36,655").

44-nuqtadan chegara chizigʻi avval shimoliy yoʻnalishda ariqning suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan 365 metr masofani oʻtib, keyin shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda 469 metr masofani oʻtib, soʻng qishloq ichki yoʻlining shimol tomoni bilan umumiy gʻarbiy yoʻnalishda barcha burulishlarni hisobga olgan holda 490 metr masofani oʻtib 45-nuqtaga tutashadi (shimoliy kenglik 38°2'54,219", sharqiy uzunlik 67°44'6,188").

45-nuqtadan chegara avval quruq chiziq orqali umumiy shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda barcha burulishlarni hisobga olgan holda 1134 metr masofani oʻtib, keyin qishloq ichki yoʻlining gʻarb tomoni bilan shimoliy-shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda 138 metr masofani oʻtib, soʻng shimoliy yoʻnalishda 174 metr masofani oʻtib, soʻngra shimoliy-sharqiy yoʻnalishda 250 metr masofani oʻtib, keyin

hovuzning chap tomoni bilan shimoliy-shimoliy-sharqiy yoʻnalishda 205 metr masofani oʻtib 46-nuqtaga tutashadi (shimoliy kenglik 38°3'33,236", sharqiy uzunlik 67°43'54,170").

46-nuqtadan chegara avval quruq chiziq orqali umumiy shimoliy-shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda barcha burulishlarni hisobga olgan holda 1163 metr masofani oʻtib, keyin shimoliy-shimoliy-sharqiy yoʻnalishda 368 metr masofani oʻtib, soʻng umumiy gʻarbiy-shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda ariqning suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan 1530 metr masofani oʻtib, ariq boʻyidagi 47-nuqtaga tutashadi (shimoliy kenglik 38°4'42,799", sharqiy uzunlik 67°43'3,592").

47-nuqtadan chegara chizigʻi avval shimoliy yoʻnalishda ariqning suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan 194 metr masofani oʻtib, keyin ariqning suv oqimi boʻylab oʻng tomoni bilan shimoliy-sharqiy yoʻnalishda 326 metr masofani oʻtib, soʻng sharqiy-janubiy-sharqiy yoʻnalishda 420 metr masofani oʻtib, ariq boʻyidagi 48-nuqtaga tutashadi (shimoliy kenglik 38°4'51,888", sharqiy uzunlik 67°43'25,871").

48-nuqtadan chegara chizigʻi avval shimoli-shimoliy-sharqiy yoʻnalishda ariqning suv oqimiga qarshi oʻng tomoni bilan 238 metr masofani oʻtib, keyin shimoliy-shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda 222 metr masofani oʻtib, soʻng shimoliy-shimoliy-sharqiy yoʻnalishda 295 metr masofani oʻtib, soʻngra sharqiy yoʻnalishda 388 metr masofani oʻtib, ariq boʻyidagi 49-nuqtaga tutashadi (shimoliy kenglik 38°5'15,511", sharqiy uzunlik 67°43'46,964").

49-nuqtadan chegara chizigʻi avval shimoliy-sharqiy yoʻnalishda ariqning suv oqimiga qarshi oʻng tomoni bilan 779 metr masofani oʻtib, keyin shimoliy yoʻnalishda 76 metr masofani oʻtib, soʻng shimoliy-shimoliy-sharqiy yoʻnalishda 189 metr masofani oʻtib, soʻngra shimoliy-sharqiy yoʻnalishda 93 metr masofani oʻtib, keyin sharqiy-janubiy-sharqiy yoʻnalishda 341 metr masofani oʻtib, soʻng umumiy sharqiy-shimoliy-sharqiy yoʻnalishda ariqning suv oqimiga qarshi oʻng tomoni bilan barcha burulishlarni hisobga olgan holda 547 metr masofada avtomobil yoʻlini kesib oʻtadi va shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda ariqning suv oqimiga qarshi oʻng tomoni bilan 98 metr masofani oʻtib, soʻngra shimoliy yoʻnalishda 508 metr masofani oʻtib, ariq boʻyidagi 50-nuqtaga tutashadi (shimoliy kenglik 38°6'13,567", sharqiy uzunlik 67°44'37,604").

50-nuqtadan chegara chizigʻi ariqning suv oqimi boʻylab oʻng tomoni bilan avval janubiy-sharqiy yoʻnalishda barcha burulishlarni hisobga olgan holda 1193 metr masofani oʻtib, keyin sharqiy yoʻnalishda 111 metr masofani oʻtib, soʻng shimoliy-shimoliy-sharqiy yoʻnalishda zovurning suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan 159 metr masofani oʻtib, soʻngra sharqiy yoʻnalishda ariqning suv oqimiga qarshi oʻng tomoni bilan 178 metr masofani oʻtib, keyin sharqiy-shimoliy-sharqiy yoʻnalishda 457 metr masofani oʻtib, ariq boʻyidagi 51-nuqtaga tutashadi (shimoliy kenglik 38°5'57,794", sharqiy uzunlik 67°45'43,465").

51-nuqtadan chegara chizigʻi avval umumiy shimoliy-shimoliy-sharqiy yoʻnalishda ariqning suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan barcha burulishlarni hisobga olgan holda 1232 metr masofani oʻtib, keyin shimoliy-sharqiy yoʻnalishda

215 metr masofani oʻtib, soʻng sharqiy-janubiy-sharqiy yoʻnalishda 203 metr masofani oʻtib, soʻngra ariqning suv oqimi boʻylab oʻng tomoni bilan 701 metr masofani oʻtib, qishloq ichki yoʻli boʻyidagi 52-nuqtaga tutashadi (shimoliy kenglik 38°6'11,535", sharqiy uzunlik 67°46'19,571").

52-nuqtadan chegara chizigʻi avval qishloq ichki yoʻlining sharq tomoni bilan shimoliy yoʻnalishda 79 metr masofani oʻtib, keyin umumiy shimoliy-sharqiy yoʻnalishda ariqning suv oqimiga qarshi oʻng tomoni bilan 949 metr masofani oʻtib, soʻng quruq chiziq orqali shimoliy yoʻnalishda 176 metr masofani oʻtib, soʻngra dala tuproq yoʻlining gʻarb tomoni bilan shimoliy yoʻnalishda 307 metr masofani oʻtib, keyin ariqning suv oqimi boʻylab oʻng tomoni bilan shimoliy-sharqiy yoʻnalishda 124 metr masofani oʻtib, ariq boʻyidagi 53-nuqtaga tutashadi (shimoliy kenglik 38°6'54,517", sharqiy uzunlik 67°46'45,891").

53-nuqtadan chegara chizigʻi avval ariqning suv oqimi boʻylab oʻng tomoni bilan janubiy yoʻnalishda 163 metr masofani oʻtib, keyin dala tuproq yoʻlining shimol tomoni bilan sharqiy-janubiy-sharqiy yoʻnalishda 65 metr masofani oʻtib, soʻng sharqiy-shimoliy-sharqiy yoʻnalishda barcha burilishlarini hisobga olgan holda 289 metr masofani oʻtib 54-nuqtaga tutashadi (shimoliy kenglik 38°6'51,372", sharqiy uzunlik 67°46'59,279").

54-nuqtadan chegara avval toʻgʻri chegara chizigʻi orqali Tentak soyni shimoliy-sharqiy yoʻnalishda 117 metr masofada kesib oʻtadi va shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda soyning suv oqimiga qarshi oʻng qirgʻogʻi bilan 278 metr masofani oʻtib, keyin umumiy shimoliy yoʻnalishda barcha burulishlarni hisobga olgan holda 1935 metr masofani oʻtib, soʻng sharqiy yoʻnalishda ariqning suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan 59 metr masofani oʻtib, soʻngra shimoliy yoʻnalishda 55 metr masofani oʻtib, ariq boʻyidagi 55-nuqtaga tutashadi (shimoliy kenglik 38°7'57,059", sharqiy uzunlik 67°46'43,209").

55-nuqtadan chegara chizigʻi avval sharqiy-janubiy-sharqiy yoʻnalishda ariqning suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan 130 metr masofani oʻtib, keyin ariqning suv oqimi boʻylab oʻng tomoni bilan sharqiy-shimoliy-sharqiy yoʻnalishda 233 metr masofani oʻtib, soʻng shimoliy yoʻnalishda 450 metr masofani oʻtib, soʻngra sharqiy-shimoliy-sharqiy yoʻnalishda 23 metr masofani oʻtib, keyin avtomobil yoʻlining gʻarb tomoni bilan janubiy-janubiy-sharqiy yoʻnalishda 1137 metr masofani oʻtib, zovur boʻyidagi 56-nuqtaga tutashadi (shimoliy kenglik 38°7'37,816", sharqiy uzunlik 67°47'9,983").

56-nuqtadan chegara chizigʻi zovurning suv oqimi boʻylab chap tomoni bilan avval umumiy sharqiy-janubiy-sharqiy yoʻnalishda barcha burulishlarni hisobga olgan holda 1605 metr masofani oʻtib, keyin shimoliy-shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda 156 metr masofani oʻtib, soʻng shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda 196 metr masofani oʻtib, soʻngra qishloq ichki yoʻlining gʻarb tomoni bilan shimoliy-shimoliy-sharqiy yoʻnalishda 359 metr masofani oʻtib, keyin yoʻlning shimol tomoni bilan sharqiy yoʻnalishda 97 metr masofani oʻtib, yoʻl boʻyidagi 57-nuqtaga tutashadi (shimoliy kenglik 38°7'37,911", sharqiy uzunlik 67°48'7,111").

57-nuqtadan chegara chizigʻi qishloq ichki yoʻlining shimol tomoni bilan avval sharqiy-janubiy-sharqiy yoʻnalishda 235 metr masofani oʻtib, keyin sharqiy yoʻnalishda 124 metr masofani oʻtib, soʻng ariqning suv oqimi boʻylab oʻng tomoni bilan umumiy sharqiy yoʻnalishda 405 metr masofani oʻtib, soʻngra sharqiy-janubiy-sharqiy yoʻnalishda 210 metr masofani oʻtib, keyin janubiy-janubiy-sharqiy yoʻnalishda 171 metr masofani oʻtib, soʻng qishloq ichki yoʻlining shimol tomoni bilan sharqiy yoʻnalishda 138 metr masofani oʻtib, yoʻl boʻyidagi 58-nuqtaga tutashadi (shimoliy kenglik 38°7'27,563", sharqiy uzunlik 67°48'52,769").

58-nuqtadan chegara quruq chiziq orqali yoʻldan oʻtib shimoliy-shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda 97 metr masofani oʻtib, keyin sharqiy-shimoliy-sharqiy yoʻnalishda 29 metr masofani oʻtib, soʻng umumiy shimoliy yoʻnalishda ariqning suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan barcha burulishlarni hisobga olgan holda 1919 metr masofani oʻtib, soʻngra sharqiy-shimoliy-sharqiy yoʻnalishda 280 metr masofani oʻtib, keyin umumiy shimoliy yoʻnalishda ariqning suv oqimiga qarshi oʻng tomoni bilan barcha burulishlarni hisobga olgan holda 1127 metr masofani oʻtib, ariq boʻyidagi 59-nuqtaga tutashadi (shimoliy kenglik 38°8'51,996", sharqiy uzunlik 67°48'41,702").

59-nuqtadan chegara chizigʻi avval umumiy shimoliy yoʻnalishda ariqning suv oqimiga qarshi oʻng tomoni bilan barcha burulishlarni hisobga olgan holda 2670 metr masofani oʻtib, keyin shimoliy-shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda 125 metr masofani oʻtib, soʻng qishloq ichki yoʻlining sharq tomoni bilan shimoliy-sharqiy yoʻnalishda 24 metr masofani oʻtib, avtomobil yoʻli boʻyidagi 60-nuqtaga tutashadi (shimoliy kenglik 38°10'12,299", sharqiy uzunlik 67°48'19,154").

60-nuqtadan chegara chizigʻi avval avtomobil yoʻlini kesib oʻtib ariqqa tutashadi va ariqning shimoliy-shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda ariqning suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan 471 metr masofani oʻtib, keyin dala tuproq yoʻlining sharq tomoni bilan shimoliy-shimoliy-sharqiy yoʻnalishda 88 metr oʻtib, yoʻl boʻyidagi 61-nuqtaga tutashadi (shimoliy kenglik 38°10'27,575", sharqiy uzunlik 67°48'10,676").

61-nuqtadan chegara chizigʻi dala tuproq yoʻlining sharq tomoni bilan avval janubiy-sharqiy yoʻnalishda 279 metr masofani oʻtib, keyin ariqning suv oqimi boʻylab chap tomononi bilan shimoliy-sharqiy yoʻnalishda 706 metr masofada zovurni kesib oʻtadi va gʻarbiy-shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda zovurning suv oqimiga qarshi oʻng tomoni bilan 50 metr masofani oʻtib, soʻng shimoliy-sharqiy yoʻnalishda zovurning suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan 171 metr masofani oʻtib, zovur boʻyidagi 62-nuqtaga tutashadi (shimoliy kenglik 38°10'39,444", sharqiy uzunlik 67°48'42,381").


62-nuqtadan chegara chizigʻi zovurning suv oqimi boʻylab chap tomoni bilan avval janubiy-sharqiy yoʻnalishda 329 metr masofani oʻtib, keyin sharqiy-janubiy-sharqiy yoʻnalishda 112 metr masofani oʻtib, soʻng umumiy sharqiy yoʻnalishda barcha burulishlarni hisobga olgan holda 3366 metr masofani oʻtib, ariq boʻyidagi 1-nuqtaga tutashadi (shimoliy kenglik 38°10'5,799", sharqiy uzunlik 67°50'42,425").

Xalq deputatlari Sho‘rchi tumani
Kengashining
2024-yil 26-oktabrdagi
VI-80-158-8-120-K/24 -son qaroriga
2-ilova

2-ilova

Surxondaryo viloyati Sho'rchi tumani ma'muriy hududiy chegarasini belgilash ishlari bo'yicha

KARTOGRAFIK CHIZMASI



Chegaradosh yerlar izohnomasi

A dan B gacha	***Denov tumani yerlari***
B dan D gacha	***Uzun tumani yerlari***
D dan E gacha	***Qumqo'rg'on tumani yerlari***
E dan A gacha	***Oltinsoy tumani yerlari***

Shartli belgilar

1	**Chegaraning burilish nuqtalari**
	Tumanlar chegarasi